

UDC: 346.2(042)(575.1)
ORCID: 0000-0003-0527-5962

TADBIRKORLIK FAOLIYATI HUQUQIY ASOSLARI VA MUVAFFAQIYATSIZLIK

Qalandarov Aminjon Amondullayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Biznes huquqi” kafedrasи o’qituvchisi,
e-mail: aminjonqalandarov9@gmail.com

Annotatsiya. Tadbirkorlik hukumatlar, ommaviy axborot vositalari va tadbirkorlik faoliyatiga qiziquvchilar tomonidan yuqori baholanadi. Shaxslar tadbirkorlikda erkinlikka bo’lgan ehtiyojni va qoniqish hissini qondirish vositalarini ko’rsalar-da, siyosatchilar buni millat uchun iqtisodiy o’sish ambitsiyalarini qondirish uchun yonilg’i deb bilishadi. Mavzu, garchi yangi bo’lmasa-da, ommaviy axborot vositalarida haddan tashqari ko’p e’tirof etilmoqda. Chindan ham, yirik firmalar, ayniqsa, rivojlangan iqtisodiyotlarda ustunlik qilgan davrdan keyin tadbirkorlik qayta tiklanayotganga o’xshaydi. Mazkur maqolada tadbirkorlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning kelib chiqish tarixi, tadbirkorlikning bozor munosabatlarida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizimga ta’siri, tadbirkorlik faoliyatining huquqiy tartibga solinishining dolzarbligi, jismoniy va yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishi va ularning shakllari, tadbirkorlik faoliyatining fundamental-huquqiy negizlari, ularga bo’lgan talablarning yuzaga kelish asoslarini hamda mazkur ijtimoiy munosabat subyektlari tomonidan qabul qilish bosqichlari, tadbirkorlik faoliyatida duch kelish mumkin bo’lgan muvaffaqiyatsizlik, to’lovga qobiliyatsizlik to’g’risidagi qonunlarning tadbirkorlik faoliyatini qayta tiklashdagi ahamiyati haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: tadbirkorlik, muvaffaqiyatsizlik, to’lovga qobiliyatsizlik, jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar.

ВАЖНОСТЬ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Каландаров Аминжон Амондуллаевич,
преподаватель кафедры «Бизнес-право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Предпринимательство является важной сферой, что осознается правительствами, средствами массовой информации и теми, кто заинтересован в предпринимательстве. В то время как отдельные люди рассматривают предпринимательство как потребность в свободе деятельности и чувстве удовлетворения от него, политики видят в нем ресурс для целей экономического роста страны. Эта тема не нова и широко освещается в средствах массовой информации. Действительно, предпринимательство, похоже, восстанавливается после периода, когда доминировали крупные фирмы, особенно это проявлялось в странах с развитой экономикой. В данной статье раскрывается сущность концепции предпринимательства, его история, влияние предпринимательства на политическую, социальную и экономическую систему в рыночных отношениях, актуальность правового регулирования предпринимательства, деятельность физических и юридических лиц и их формы, основополагающие правовые основы и основания для возникновения требований к ним, а также этапы принятия этими субъектами общественных отношений и значение законов о несостоительности бизнеса и несостоительности в возобновлении предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: предпринимательство, банкротство, несостоительность, физические и юридические лица.

THE IMPORTANCE OF LEGAL REGULATION OF BUSINESS

Kalandarov Aminjon Amondullayevich,
Lecturer of the Department of Business Law of
Tashkent State University of Law

Abstract. Entrepreneurship is highly regarded by governments, the media, and those interested in entrepreneurship. While individuals see entrepreneurship as a means of meeting the need for freedom and a sense of satisfaction, politicians see it as the fuel for the country's drive for economic growth. This topic, although not new, is widely known in the media; indeed, entrepreneurship seems to be recovering from a period when large firms dominated, especially in advanced economies. This article reveals the essence of the concept of entrepreneurship, its history, the impact of entrepreneurship on the political, social and economic system in market relations, the relevance of legal regulation of entrepreneurship, the activities of individuals and legal entities and their forms, the fundamental legal framework and the basis for the emergence of requirements for them, and also the stages of adoption by these subjects of public relations and the significance of the laws on business insolvency and bankruptcy in the resumption of entrepreneurial activity.

Keywords: entrepreneurship, bankruptcy, insolvency, individuals, legal entities.

Tadbirkorlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati

Tadbirkorlikka aniq ta'rif berish juda qiyin, chunki bu ko'p o'lchovli tushuncha. Iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorga ko'plab funksiyalar va rollar berilgan: innovator, qaror qabul qiluvchi, sanoat rahbari, iqtisodiy resurslarning tashkilotchisi va muvofiqlashtiruvchisi, korxona egasi, ishlab chiqarish omillari ish beruvchisi, pudratchi, hakam, resurslarni taqsimlovchi, muqobil foydalanish qatori-da yangi biznesni boshlashga erishgan shaxs.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, faol tadbirkorlikni rivojlantirish e'tiborimiz markazida bo'ladi, bu sohani qo'llab-quvvatlash, biznes subyektlarini jadal va barqaror rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rildi [1].

Turli huquq tizimlarida tadbirkorlikka o'ziga xos tarzda ta'rif berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida tadbirkorlik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjalariiga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat. Shuningdek, qonunda tadbirkorlik subyektlari belgilangan tartibda davlat ro'yxitidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkinligi e'tirof etilgan.

Ikki ma'no, odatda, tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lib, turli xil tushunchalarga ishora qiladi: birinchidan, tadbirkor bu biznesga egalik qiluvchi va uni boshqaradigan kishidir. Bu "tadbirkorlikning kasb tushunchasi" hisoblanadi [2]. Ushbu ta'rif doirasida bir dinamik nuqtayi nazar tadbirkorlar-

ni yangi biznesning yaratuvchisi deb hisoblasa, yana bir turg'un qarash korxona egalarining soniga qaratilgan. Ikkinci an'anaviy ta'rif tadbirkorni iqtisodiy imkoniyatdan foydalanadigan kishi sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu tavsif "tadbirkorlikning xulq-atvor tushunchasi"ga ishora qiladi [3].

Tadbirkorlikni yaxshiroq tushunish uchun kapitalizmning dastlabki rivojlanishiga qaytish foydadan holi bo'lmaydi. Kapitalizm aholi talab qiladigan tovar va xizmatlarni samarali ishlab chiqarishni maksimal darajada oshirish uchun xususiy imtiyozlardan foydalanishga bog'liq.

Tarixchi Charlz Van Doren o'zining "Bilim tarixi: o'tmish, hozir va kelajak" kitobida "ibtidoiy bozor munosabatlari"ning kelib chiqishini yoritib beradi [4]. Bu qadimgi misrliklar, dehqonlar oldidagi iqtisodiy hayot, savdogar, podshohning paydo bo'lishi, mehnat bozorlarining ko'tarilishi haqida tasavvur beradi.

Bugungi kunda bozor munosabatlari siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizim sifatida ta'riflanadi. Bu xususiy mulkchilik bilan tavsiflanadi – nafaqat yer va binolar, balki tadbirkorlar foya olish uchun foydalanadigan patentlar, nou-xaular va jarayonlar. Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlar nimani ishlab chiqarish, qancha ishlab chiqarish va qaysi ishlab chiqarish usulini qabul qilish kabi iqtisodiy qarorlar uchun javobgardir [5].

Tadbirkorlik – bu tadbirkor yoki "tavakkal va tashabbus bilan foya olishga urinayotgan xo'jalik yurituvchi korxonaning egasi yoki boshqaruvchisi" bo'lish harakati. Tadbirkorlar menejer vazifasini bajaradilar va korxonaning ishga tushirilishi va o'sishini nazorat qiladilar. Tadbirkorlik – bu shaxs yoki jamoaning biznes imkoniyatini aniqlab, uni ekspluatatsiya qilish uchun zarur bo'lgan resurslarni olish va sarflash jarayoni. XIX asrning boshlarida fransuz iqtisodchisi Jan-Batist Say "iqtisodiy resurslarni pastroq maydonдан yuqori

mahsuldarlik va katta hosil olish sohasiga o'tkaza-di" deb, tadbirkorlikka keng ta'rif bergen [6].

Tadbirkor bu iqtisodiyot chambaragini aylantirishda muhim omil bo'lib, tadbirkorlikni o'r-ganish XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Richard Kantillon va Adam Smitning ishlardan boshnadi [7]. Biroq nazariy jihatdan tadbirkorlik XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha ham chuqur e'tibor qaratilmagan. Tadbirkorlikni tushunishda 1930-yillarda ushbu davrning mashhur iqtisodchilari Jozef Shumpeter va Karl Menger, Lyudvig fon Mayz va Fridrix fon Xayk kabi boshqa avstriyalik iqtisodchilarning ishlari katta hissa qo'shdi. Shumpeterning fikriga ko'ra, tadbirkor – bu yangi g'oya yoki ixtironi muvaffaqiyatli yangilikka aylantirishga tayyor va qodir odam [8]. Bu esa "tadbirkorlik iqtisodiy o'sishga olib keladi" degan taxminning ilgari surilishiga va jahon iqtisodiyotida qizg'in bahs munozaraga sabab bo'lgan. Shuningdek, Jozef Shumpeter tadbirkorning iqtisodiyotdagi rolini o'ziga xos tarzda "kreativ halokat" (creative destruction) deb atadi. Bu bir vaqtning o'zida yangi sanoat va tarmoqlarni ochishda eski sanoat tarmoqlarini yo'q qiladigan yangiliklarni ishga tushirish demakdir. Shumpeter uchun o'zgarishlar va innovatsion tadbirkor tomonidan olib borilgan dinamik muvozanat "sog'lom iqtisodiyotning me'yori" edi [9].

Tadbirkorlar – bu bozor imkoniyatlardan foydalaniib, resurslarni to'g'ri taqsimlash, tartibga solish va joylashtirish orqali, tavakkal qilishga va tashabbuskor bo'lishga tayyor rahbarlardir [10]. XXI asr boshiga kelib tadbirkorlik tushunchasi yanada kengroq tarzda talqin etila boshlandi. Xususan, ijtimoiy tadbirkorlik, siyosiy tadbirkorlik yoki bilim tadbirkorligi kabi shakllar vujudga keldi. Global Entrepreneurship Monitor asoschisi Pol Reynoldsning so'zlariga ko'ra, "pensiya yoshi-ga yetguniga qadar Qo'shma Shtatlardagi barcha ishlaydigan erkaklarning yarmi o'z-o'zini ish bilan ta'minlash muddati bir yoki bir necha yilga teng bo'lishi mumkin; har to'rt kishidan biri olti yil yoki undan ko'proq vaqt davomida o'z-o'zini ish bilan ta'minlashi mumkin" [11]. So'nggi yillarda tadbirkorlik nafaqat AQSh va G'arbiy Yevropa rivojlan-gan mamlakatlarida, balki yer yuzidagi barcha rivojlanayotgan mamlakatlarda ham iqtisodiy o'sishning asosiy dvigateli deb tan olinmoqda.

O'z biznesini ochmoqchi bo'lgan potensial tadbirkorlar likvidlik cheklovlariga duch kelishadi;

haqiqatan ham, ular ko'pincha o'z bizneslarini boshlash uchun zarur bo'lgan optimal kapitaldan mahrum bo'lishadi. Ma'lumki, kapitalga ehtiyoj sezgan tadbirkorlar ushbu cheklovga qarshi turib, o'z bizneslarini boshlash uchun tashqi kredit qidi-radilar. O'z navbatida, ushbu sarmoyalar kreditorlar va qarzdor bo'lgan tadbirkorlar o'rtasida majburiyatlarni va majburiy shartnomani yaratadi.

Ba'zida tadbirkorlar biznes yuritishda va qarzni to'lashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunlar – kreditorlar va qarzdorlar o'rtasida, agar ikkinchisi o'z majburiyatlarini bajara olmasa, qarzlarni undirishni tashkil etishga yordam beradigan qoidalar to'plami. Shunday ekan, ushbu qonun-qoidalar to'plami tadbirkorlar uchun juda muhimdir. Chunki tadbirkorlar o'z faoliyatlarida bankrotlikka duch kelsa, ular faqat bankrotlik qonun qoidalar bilan cheklanadi. Bu esa, ularga yetkazilishi mumkin bo'lgan katta zararning yoki kreditorlar oldidagi keragidan ortiqcha javobgarlikning oldini olishga xizmat qilishi mumkin. Bankrotlik tizimi "o'yin"dan chiqish narxini belgilaydi va bankrot bo'lgan tadbirkorning biznesni qayta boshlashiga ta'sir qiladi [12]. To'lovga qobiliyatsizlik mavjud bo'lganda qo'llaniladigan bankrotlik rejimi kreditorlarning huquqlarini himoya qilishga va shu bilan birga, hayotga layoqatli firmalarning muddatidan oldin tugatilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Qisqa qilib aytganda, bankrotlik rejimi normalari qarz beruvchi uchun kapitalni va tadbirkorlar uchun ushbu kapitalni berish uchun imtiyozlarni muvozanatlashtirishdan va tartibga solishdan iborat.

Tadbirkorlik subyektlarining turlari va tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishning o'ziga xosligi

Har bir huquq tarmog'i o'z subyektlariga ega bo'lganidek, tadbirkorlik huquqining ham o'z subyektlari bor. Fuqarolik huquqida barcha huquq subyektlari "shaxslar" deb umumiyl e'tirof etiladi. "Shaxslar", o'z navbatida, uch guruhga bo'linadi:

1) *jismoniy shaxslar* – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;

2) *yuridik shaxslar* – foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar) hisoblanadi. Ular O'zbekiston Respublikasi,

chet el yoki aralash (qo'shma) korxonalar shaklida bo'lishi mumkin;

3) *davlat* – davlat alohida subyekt sifatida be-
vosita o'z nomidan, shuningdek, uning nomidan
ma'muriy hududiy tuzilmalar yoki davlat organ-
lari ishtirok etishlari mumkin [13].

Jismoniy va yuridik shaxslar fuqarolik-huquqiy
munosabatlarda tadbirkor sifatida, shuningdek,
bunday maqomga ega bo'lmasdan qatnashish-
lari mumkin. Binobarin, fuqarolik huquqi sub-
yektlari bir vaqtning o'zida tadbirkorlik huquq
subyektlari hisoblanishi mumkin. Tadbirkorlik
munosabatlarida subyekt doimo tavakkal qiladi,
javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va foyda olishga
intiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-may-
dagi O'RQ-328-sonli "Tadbirkorlik faoliyati erkin-
ligining kafolatlari to'g'risida" yangi tahrirdagi
Qonunining 4-moddasiga ko'ra, tadbirkorlik faoli-
yati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgi-
langan tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda tadbir-
korlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va
jismoniy shaxslardir. Ammo ushbu Qonunning
ushbu moddasida davlat organlari, ulardagi man-
sabdor shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyati bilan
shug'ullanishi qonunchilikda man etilgan boshqa
shaxslar tadbirkorlik faoliyati subyektlari bo'lishi
mumkin emasligi ham keltirilgan.

Tadbirkorlik huquqining subyektlari quyidagi
o'ziga xos belgilari bilan farqlanadi:

- davlat ro'yxatidan o'tganligi;
- muayyan faoliyat turlari bilan shug'ullanish-
lari uchun ruxsatnoma (litsenziya)ga ega bo'lishi;
- o'z mol-mulkiga ega bo'lishi;
- tadbirkorlik huquq va majburiyatlariga ega
bo'lishi;
- o'z mol-mulki doirasida mustaqil javobgarligi;
- o'zlarining buzilgan huquqlarini va qonuniy
manfaatlarini sud orqali himoya qilish imkoniyati-
ga ega ekanligi.

Tadbirkorlik huquqi subyektlarini bir necha
turlarga bo'lish mumkin. Subyektlar mulkchilik
shakliga, vakolatlariga, shaxslarga (jismoniy va
yuridik) va faoliyat turiga qarab turlarga bo'linadi.
Quyida jismoniy va yuridik shaxslarning tadbir-
korlik faoliyati haqidagi ma'lumotlarga qisqacha
to'xtalamiz.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati

"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari
to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri (2012-yil

2-mayda qabul qilingan) yuridik shaxs tashkil et-
masdan tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi tad-
birkorlik subyektlari, shu jumladan, yakka tartib-
dagi tadbirkorlar faoliyati ko'lamini kengaytirdi
va tadbirkorlik subyekti sifatida mustahkamladi.
Qonunga ko'ra, har qanday fuqaro tadbirkor deb
hisoblanmaydi, faqat belgilangan tartibda davlat
ro'yxatidan o'tgan va tadbirkor maqomini olgan
jismoniy shaxslargina tadbirkor sifatida e'tirof eti-
ladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartib-
dagi tadbirkor tomonidan mulk huquqi asosida
mustaqil mulkchilikda bo'lgan mol-mulk asosi-
da, shuningdek, mulkka egalik qilish va (yoki)
foydanishga imkon beradigan boshqa ashayoviy
huquqlar asosida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, Qonunning 7-moddasida yuri-
dik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik subyektlar-
ining shakllari quyidagicha mustahkamlangan
[14]:

er-xotinning umumiyligi mol-mulki negizida ular
tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbir-
korlik;

– ikki yoki undan ortiq yakka tartibdagi tad-
birkorlar tomonidan foyda olish yoki qonunga zid
bo'limgan boshqa maqsadga erishish uchun o'z
hissalarini qo'shish va yuridik shaxs tuzmasdan,
birgalikda ish qilish majburiyatini olgan oddiy
shirkat;

– yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon
xo'jaligini yuritish.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida
belgilari tashkiliy birlik, alohida mol-mulkka ega
bo'lishi, o'z majburiyatları yuzasidan o'ziga tegish-
li mulk bilan javob berish, o'z nomidan mulkiy va
shaxsiy-nomulkiy huquqlarni olish va majburiyat-
larga ega bo'lish, shuningdek, sudda da'vogar va
javobgar bo'lish layoqatidan iborat. Shu jumladan,
yuridik shaxs foyda olishni o'z faoliyatining aso-
siy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki
foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan
tashkilot (tijoratchi bo'limgan tashkilot) sifatida
shakllantirilishi mumkin [15].

Korporativ huquqning boshlang'ich elementi
yuridik shaxsdir. Korporativ qonunlar yetkazib
beruvchilar, firma investorlari va barcha iqtisodiy
subyektlar o'rtasida shartnoma tuzish jarayonini
yengillashtirishga qaratilgan bo'lib, bu firma o'zi-

ning iqtisodiy qiymatini yaratish bo'yicha yakuniy maqsadiga erishishiga imkon beradi. Aynan shuning uchun qonun "firma egasi bo'lgan va uni boshqaradigan yoki firmaning yetkazib beruvchisi yoki mijozи bo'lgan turli xil shaxslardan ajralib turadigan yagona yuridik shaxsni" yaratdi. Firmaning korporativ identifikatsiyasi har xil manfaatdor tomonlarni qo'shma loyihada ishtirok etishga undaydi [16]. Tijorat korporatsiyasi kuchli yuridik shaxsga xos bo'lgan ikki xil huquqiy qoidalarga bo'ysunadi: ustuvorlik qoidasi va tugatishdan himoya qilish.

Prioritet, ya'ni ustuvorlik qoidasida firma kreditorlari firma egalarining shaxsiy kreditorlari oldida firma aktivlariga da'vo qilish bo'yicha ustunligi ta'kidlanadi. Ushbu amaliyat kompaniyaning shartnomaviy majburiyatlariga ishonchni oshirishga yordam beradi, bu esa uni potensial qarz beruvchilarni jalg qilishda muhim rol o'ynaydi.

Bankrotlik yoki restrukturizatsiya qilingan taqdirda da'volarning "mutlaq ustuvorligi qoidasi" manfaatdor tomonlarning xavfli harakatlarini ex-ante oldini olish mumkin. Bundan tashqari, ushbu funksiya qayta tashkil etish jarayonida kreditorlar koordinatsiyasi bilan bog'liq muammolarining oldini olishi mumkin. Boshqa tomondan, agar ustuvor qoidaga asosan aksiyadorlar yoki kichik kreditorlarning kompaniya bankrot bo'lgan taqdirda, biron-bir narsaga erishish imkoniyati kam bo'lishini oldindan sezsa, ular kompaniyada moliyaviy inqiroz boshlangan paytda ko'proq xavf tug'dirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, firma bankrot bo'lishi mumkinligini va ularning sar moyalarini qaytarish ehtimoli minimal ekanligini bilib, ular bankrotlikni keyinga qoldirib, firmani yanada xavfli loyihalarga undashlari mumkin. Bunday harakatlar firmaning moliyaviy ahvolini yomonlashtirishi va aktivlari qiymatini pasaytirishi mumkin.

Tugatilishdan himoya qilish shuni ko'rsatadiki, "firma aksiyadorlari korporatsiyani qisman yoki to'liq tugatishga majbur qiladigan tarzda o'zlarining biznes aktivlaridagi ulushlarini o'z xohishiga ko'ra qaytarib ololmaydilar". Ushbu qoida doimiy aksiyalarni individual aksiyadorlar yoki ularning kreditorlari tomonidan tugatilishidan saqlashga qaratilgan. Ular kreditorlar va aksiyadorlar huquqlari o'rtafiga muvozanatni saqlashga yordam beradi va firma aktivlarini kreditorlarning talablaridan himoya qiladi.

Cheklangan javobgarlik

Cheklangan javobgarlik shuni anglatadiki, firma kreditorlari firma menejerlarining shaxsiy aktivlarini emas, balki faqat firmaning o'ziga tegishli bo'lgan aktivlarni talab qilishlari mumkin. Mulkdorlarning javobgarligini ushbu cheklash boshqa tashkilotlar bilan taqqoslaganda korporativ shakning asosiy xususiyati hisoblanadi. Cheklangan javobgarlik korporativ shakl uchun universal norma hisoblanadi.

Boshqa asosiy huquqiy xususiyatlar

O'tkazilgan aksiyalarga kelsak, ushbu funksiya egalik qo'lidan qo'rga o'zgarganda ham firmaning uzilishlarsiz ishlashiga imkon beradi.

Direktorlar kengashi tarkibidagi vakolatli boshqaruva sizga ko'p sonli kapital egalari ishtirokida firma faoliyatini muvofiqlashtirish uchun zarur bo'lgan boshqaruvni markazlashtirishga imkon beradi. Aksariyat yirik firmalar vakolati boshqaruvdan foydalanadilar.

Investorlar uchun egalik qilish firmani boshqarish va firmaning sof foydasini olish huquqini anglatadi. Ushbu huquqlar kompaniyaga qo'yilgan kapital miqdoriga mutanosib bo'ladi.

Korporativ bankrotlik to'g'risidagi qonunlar korporativ huquqning bir qismidir. Zamonaviy kapitalistik dunyoda korporativ qonunlar nisbatan birlashtirilgan. Korporativ bankrotlik to'g'risidagi qonun ro'yxatdan o'tgan korxonalariga taalluqlidir, ya'ni bunda firma o'z egalariдан boshqa alohida "yuridik shaxs" sifatida qaralishi kerak. Ro'yxatdan o'tish, bir tomondan mulk egasining aktivlari va majburiyatlar bilan, boshqa tomondan firmaning aktivlari va majburiyatlar o'rtasida farqni taklif qiladi. Natijada, korxona bankrot bo'lgan taqdirda, egasining shaxsiy aktivlari to'g'ridan-to'g'ri xavf ostida bo'lmaydi. Biroq ushbu sug'urta turi xarajatlarga olib keladi, bu esa korporativ qarzga nisbatan yuqori foiz stavkalarida aks etadi [17].

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni quyidagi asosiy mezonlarga qarab tasniflash mumkin [18]:

- qo'shan ulushiga qarab (mas'uliyati cheklangan jamiyat, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, aksiyadorlik jamiyat);
- tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishiga qarab (to'liq va kommandit ishtirokchilik);
- o'z mehnati bilan shaxsan ishtirok etishiga ko'ra (ishlab chiqarish kooperativi, dehqon xo'jaligi);

– boshqaruvda ishtirok etishiga ko'ra (xususiy korxona, fermer xo'jaliklari).

Shu o'rinda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ulananidan yuridik shaxslarning bir necha turlarini tavsiflaymiz.

Aksiyadorlik jamiyatni. 2014-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida aksiyadorlik jamiyatni to'g'risidagi umumiy qoidalar, jamiyatni tashkil etish, ustav fondi (ustav kapitali), jamiyatning aksiyalari, korporativ obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari, jamiyatning sof aktivlari, aksiyalar va qimmatli qog'ozlarni tarqatish hamda joylashtirish, aksiyadorlar reyestri va aksiyalar ni saqlash, dividendlar, aksiyadorlik jamiyatini boshqaruvchi organlari, jamiyatning yirik bitimlar tuzishi, uni qayta tashkil etish va tugatish, hisob-kitob, hujjatlarni saqlash, jamiyat to'g'risidagi axborot va jamiyat faoliyatini nazorat qilish masalalari huquqiy tartibga solingan [19].

Aksiyadorlik jamiyatining o'ziga xosligi jamiyat ishtirokchilarining majburiyatlar bo'yicha belgilangan javobgarliklarida namoyon bo'ladi. Qonunga ko'ra, agar aksiyadorlik jamiyati zarar ko'rsa, aksiyador (jamiyat ulushiga egalik qiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs) faqatgina o'zi sotib olsaga aksiya miqdoridagi mablag'ni yo'qotadi. Aksiyadorlarning cheklangan javobgarligi kreditorlarning manfaatlari himoyasini yanada mustahkamlaydi hamda aksiya egalariga istalgan paytda aksiyalarni boshqalarga sotib yuborish huquqini beradi. Shu sababli ham ushbu tadbirkorlik faoliyati jamiyatga kapitalni jalb etishni osonlashtiradi.

Aksiyadorlik jamiyatida mulk va boshqaruv bir-biridan ajratilgan alohida tushunchalardir. Jamiyatda aksiyador jamiyatning kundalik boshqaruvida ishtirok etishi uchun vaqt bo'lmasligi yoki yetarli darajada malakaga ega bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham jamiyat maxsus bilim hamda malakaga ega bo'lgan shaxslar tomonidan boshqariladi.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi aksiyadorlar tomonidan olingan aksiyalarning nominal qiymatidan tashkil topadi va bu qiymat O'zbekiston Respublikasi milliy pul birligida (so'mda) ifodalanishi kerak. Shuningdek, jamiyatning barcha aksiyalari bir xil nominal qiymatga ega bo'lishi talab etiladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi aksiyadorlik jamiyatning boshqaruv organlari hisoblanadi. Jamiyatning kundalik boshqaruv faoliyatini ijroiya organi hisoblangan direktor yoki jamiyat boshqaruvchilari olib boradi. Kuzatuv kengashi ijroiya organi ustidan nazorat olib boradi va ularga rahbarlik qiladi. Jamiyatning yuqori boshqaruv organi esa aksiyadorlaning umumiy yig'ilishi hisoblanadi.

Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar. O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunida mas'uliyati cheklangan jamiyatga quyidagicha ta'rif berilgan:

"Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat" [20].

Qonunning 3-moddasiga ko'ra, mas'uliyati cheklangan jamiyatning (MChJ) ishtirokchilari uning majburiyatlar bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Shuningdek, bugungi kunda MChJni tashkil etishda ustav fondi miqdoriga qo'yilgan minimal talab mavjud emas. Bu esa, o'z navbatida, MChJ tashkil qilish, ya'ni yangi tadbirkorlik subyektlarini tuzishda qulayliklar yaratadi. Ammo boshqa tomonidan olib qaraganda, ustav fondi tuzilishining asosiy maqsadi korxona nochor ahvolga kelib qolganda, kreditorlarning manfaatlarini himoya qilgan holda ularga yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan. Ustav fondida minimal talabning mavjud emasligi esa potensial investorlarning, ya'ni aksiya sotib oluvchi kreditorlarning qiziqishini pasaytirishi ham mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslar MChJning muassislari bo'lishlari mumkin. Qonun bilan ayrim toifadagi jismoniy shaxslarni yoki jamiyatda ishtiroki taqiqlanishi yoki cheklanishi mumkin. Shuningdek, MChJ ishtirokchilari soni ellik nafardan oshmasli lozimligi ham Qonunda belgilangan. Agar ishtirokchilar soni ellik nafardan oshadigan bo'lsa, MChJ bir yil muddat ichida aksiyadorlik jamiyatiga yoki ishlab chiqarish kooperativiga aylantirilishi kerak. Agar bir yil ichida ushbu talablarga rioya etilmasa, MChJ sud orqali tugatiladi.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat. Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning faoliyati asosan mas'uliyati cheklangan jamiyatga oid huquq normalari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko'ra, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek, "qo'shimcha mas'uliyatli" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak [21].

Ishtirokchilardan biri nochor (bankrot) bo'lib qolganida, uning jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta'sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, boshqa ishtirokchilar o'rtasida ularning qo'shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Yuqorida fikrlarga asoslanib, tadbirkorlik tushunchasi huquqiy hamda iqtidsodiy jihatdan ta'riflanishi tushunish mumkin. Huquqiy kategoriya sifatida tadbirkorlik faoliyatiga quydagicha ta'rif beriladi: Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat.

Iqtisodiy kategoriya sifatida tadbirkorlik faoliyatiga berilgan ta'rif quydagicha: tadbirkorlik – bu tadbirkor yoki "tavakkal va tashabbus bilan foyda olishga urinayotgan xo'jalik yurituvchi korxonaning egasi yoki boshqaruvchisi" bo'lish harakati. Tadbirkorlar menejer vazifasini bajaradilar va korxonaning ishga tushirilishi va o'sishini nazorat qiladilar. Tadbirkorlik – bu shaxs yoki jamoaning biznes imkoniyatini aniqlab, uni ekspluatatsiya qilish uchun zarur bo'lgan resurslarni olish va sarflash jarayoni.

Tadbirkorlik va muvaffaqiyatsizlik

Bankrotlik doktrinasi bilan bog'liq bo'lgan uzoq va burilishli yo'lning asosiy natijalaridan biri bu tadbirkorlikning muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi aslida bitta tanganing ikki tomoni ekanligini anglashdir. Muvaffaqiyatsizlik tadbirkorlik faoliyatidagi muammoning bir qismidir. Ommaviy axborot vositalari faqat muvaffaqiyatli tadbirkorlik haqidagi voqealarni yoritib, muvaffaqiyatsizlikka uchragan voqealarni chetlab o'tishda davom etayotgan bo'lsa-da, 90 % yangi biznes muvaffaqiyatsizlikka uchraydi [22]. Innovatsion muhitda muvaffaqiyatsizlik hatto zarur omadsizlik, muvaffaqiyatga erishish uchun

qadamni ifodalovchi tajriba jarayoni deb hisoblanadi.

Ko'pgina muvaffaqiyatli tadbirkorlar va innovatorlar, o'zlarining hozir biz yashayotgan davrda inqilob qilgan kompaniyalari bilan muvaffaqiyatga erishishdan oldin bir necha bor muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Bunga oddiy misol qilib Bill Geyts tomonidan asos solingen, hatto kam sonli odamlar biladigan yoki eshitgan Traf-O-Data startapini olishimiz mumkin. Ammo deyarli barcha bugungi kunda Geytsning Microsoft kompaniyasi haqida eshitgan va u bilan tanish [23]. Eng yuqori cho'qqisida (Green, 2016) jami 11 milliard dollarga baholangan GoPro-ni tashkil etishdan oldin Nikolas Vudmen o'zining Funbug deb nomlangan startapini ishga tushirdi va natijada katta muvaffaqiyatsizlikka uchradi, bu esa 3,9 million dollarlik sarmoyani yo'qotishi ga olib keldi [24].

Bunday misollar juda ko'p va ular, odatda, om-maviy axborot vositalarida muvaffaqiyatga erishishda barqarorlikning muhimligini ta'kidlash uchun keltirilgan, ammo kam sonli odamlar bunday holatlarda tadbirkorlarning muvaffaqiyatsizligi bilan kurashish usuli ham juda muhim ekanligini ta'kidlashadi. Tasavvar qilaylik, agar Nikolas Vudmen Funbug muvaffaqiyatsizlikka uchragan payt Rim qonunchiligi davrida yashagan bo'lganida, u kreditorlarining rahm-shafqatida bo'lishi, qamoqqa olinishi yoki hatto qatl qilinishi mumkin edi. Darhaqiqat, Rim qonunchiligi hukm surgan davrda to'lovga qobiliyatsizlik qonun tomonidan jinoyat deb qaralgan [25]. O'z-o'zidan ma'lumki, qamoqxonada Vudmenning GoPro ni yaratishi va hatto qarzini to'lashi ehtimoli deyarli nolga teng bo'lar edi.

Asrlar davomida bankrot bo'lgan tadbirkorlarga nisbatan qattiq munosabat hamma joyda davom etdi, ko'p hollarda qarzdorlik uchun qamoq jazosi qo'llanildi, bu esa muvaffaqiyatsiz bo'lgan tadbirkorni yana bir bor "jazolash" va uni bozordan olib chiqishga sabab bo'lar edi. Shuningdek, qarzini to'lomagan qarzdorga nisbatan katta miqdordagi jazo choralar uding qarzni to'lash uchun daromad olish imkoniyatini cheklab qo'ydi. Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy agentlar va qonunshunoslar kreditorlarning qarzdorlarga nisbatan ushbu muvozanatsiz kuchi samarasizlikka olib keladi degan xulosaga kelishdi hamda kreditorlarning yo'qolgan aktivlarini tiklashga e'tibor kuchayib bordi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Yevropa davlatlarining aksariyati qarzdorlarga qarshi bankrotlik to'g'risidagi qonunning og'irligini yumshatish tomon harakat qila boshladilar [26]. Ikki tasodifiy kuch muvaffaqiyatsiz bo'lgan tadbirkorlarga nisbatan yangi munosabatni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa bankrotlik tizimi ni tushunishda chuqur o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Bir tomondan, muvaffaqiyatsizlik "ayb" bilan tenglasha olmaydi va tadbirkorning yaxshi niyati asosan aybga emas, "omad"ga bog'liq degan axloqiy tushunchalar o'sib bordi. Albatta, firibgarlik yo'li bilan bankrotlik holati yuzaga kelganda, jinoiy javobgarlik ham bo'lishi mumkin. Ammo aksariyat hollarda, omadsiz tadbirkorlarda yomonlik (firibgarlik qilish maqsadi) bo'lmaydi. Boshqa tomondan, ko'proq iqtisodiy nuqtayi nazar paydo bo'ldi, bunda bankrotlik tizimi qarz-dorning xulq-atvoriga qarab imtiyozlarni belgilaydi. Bu imtiyozlarning ba'zilari kreditorlarga zarar yetkazdi, masalan, bankrotlik oqibatlardan qo'rqqan qarzdorlar, suddan tashqari keli-shuvlardan foydalanib, kreditorlarning ko'nglini olish yoki shunchaki bankrotlik e'lon qilinishini keyinga qoldirish yoki bankrotlik og'irligidan qochish umidida bankrotlikni yashirishga urindilar [27]. Shunday qilib, yangi ong, yangi qarash shakllana boshladi, unda bankrotlik protsedurasi qarzdorlar va kreditorlarning shaxsiy manfaatlari tadbirkorlikni saqlab qolish va tavakkal qilishda jamoat manfaatlari bilan muvofiqlashtirish vositasi sifatida qaraladi.

Ushbu o'zgarish qarzdor uchun "jiddiylik"ning ikki jihatdan pasayishiga olib keldi. Birinchidan, ba'zi aktivlar jarayondan chiqarilishi mumkin. Odatda, qarzdorlar yashash xarajatlari, shaxsiy buyumlari va boshqalarni ushlab qolish huquqiga ega. Ikkinchidan, ko'plab huquq tizimlari yoki hech bo'limganda ko'plab sudlar bankrot bo'lgan tadbirkorga ma'lum vaqt dan so'ng "yangidan biznesni boshlash"ga imkon beradi, qarzdorga to'lamagan kredit majburiyatlaridan ozod qilinish va bankrotlik taomilidan chiqish imkoniyatini beradi. Bu esa yangi muvaffaqiyatli biznesni boshlashga imkon beradi. Qonunchilikdagi o'zgarishlar, o'z navbatida, muvaffaqiyatsizlikka bo'lgan ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatdi, shuning uchun ilgari faqat moliyaviy mas'uliyatsizlik va umumiylar ishonch sizlik belgisi sifatida qaraladigan "bankrotlik" holatlari munosabat qisman o'zgardi, garchi de-fakto

ijtimoiy tamg'alashni to'liq olib tashlash de-yurega qaraganda ancha qiyin va har bir mamlakatda turli darajada namoyon bo'ladi [28].

Klassens va Clapperlarning fikricha, xalqaro taqqoslashlar shuni ko'rsatadiki, bankrotlik ishlari soni mamlakatlar o'rtasida juda katta farq qildi, ammo umumiy tendensiyalar paydo bo'lmoqda [29]. Biznes hisobotlarida ta'kidlanishicha, bankrotlik taomillariga osonlikcha kirish moliyaviy muammolarni hal etish samaradorligidan dalolat beradi. Shunday qilib, dunyodagi ko'plab hukumatlar o'zlarining taomillarini ko'proq tadbirkorlar va biznes subyektlariga ochish uchun bankrotlik rejimlarida islohotlarni boshladilar, shu bilan birga bankrotlik to'g'risidagi ariza berishga ruxsat berilgan tarmoqlar ro'yxatini diversifikatsiya qilishdi. Bugungi kun nuqtayi nazardinan bankrotlikka o'tish endi hech bo'limganda qonun bo'yicha bankrot bo'lgan firmani tugatish to'g'risidagi yakuniy harakat sifatida ko'rilmaydi, aksariyat hollarda asosiy vosita, resurslar va imkoniyatlarni aralashtirib yuboradigan "aylanma yo'l" sifatida qaraladi. Muvaffaqiyatsizlikni sud jarayonidan ajratib bo'lmaydigan fikr va tadbirkorlik jamiyatida biznesni rag'batlantirish uchun muvaffaqiyatsizlik yaxshiroq va arzonroq deb qabul qilinishi kerak. Biroq qonunlarni kitoblarda qabul qilishdan tashqari, haqiqiy idrokning aksariyati amaldagi qonunlarga, ya'ni qoidalarning qanday qo'llanishi va taomillarning real dunyoda qanchalik samarali bo'lishiga bog'liq.

Ko'plab taniqli iqtisodchilar "iqtisodiyotda muvaffaqiyatsizliklar bo'lishi kerak, chunki iqtisodiyot dinamik va o'sib bormoqda" deb ta'kidlaydilar [30]. Shu nuqtayi nazardinan kelib chiqib, bozorga moslasha olmaydigan va samarasiz bo'lib qoladigan kompaniyalarni yo'q qilish ratsional va oqilona jarayon deb ta'kidlash mumkin. Ushbu bartaraf etish yanada innovatsion va foydali firmlar uchun resurslarni bo'shatish uchun zarurdir. Ijodiy halokat (creative destruction) jarayoniga to'sqinlik qilish jiddiy qisqa va uzoq muddatli makroiqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin [31].

Demak, yuqorida aytib o'tganimizdek, muvaffaqiyatsizlik, tadbirkorlik faoliyatidagi tanganning bir tomoni bo'lishdan tashqari, kelajakdagiligi muvaffaqiyat uchun asos bo'lishi mumkin yoki yanada samarali loyiha uchun resurslarni yaxshiroq qayta taqsimlashi mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi [President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis]. Xalq so'zi – People's word, 2017, December 23, no. 258 (6952), p. 2.
2. Hebert R.F., Link A.N. In search of the meaning of entrepreneurship. Small Business Economics, 1989, no. 1 (1), pp. 39–49.
3. Wennekers S., Thurik R. Linking Entrepreneurship and Economic Growth. Small Business Economics, 1999, no. 13 (1), pp. 27–56.
4. Price R. What Is The History Of Entrepreneurship?. Global Entrepreneurship Institute, 2011. Available at: <https://news.gcase.org/2011/02/04/what-is-the-history-of-entrepreneurship/>.
5. Akhrorova S. The influence of digital marketing in competition law: overview. Herald pedagogiki. Nauka i Praktika – Herald pedagogics. Science and Practice, 2021, vol. 1, no. 5.
6. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship.attributes the coining and defining of "entrepreneur" to Jean-Baptiste Say in his A Treatise on Political Economy, 1834. 1985.
7. Jevons W.S. Richard Cantillon and the Nationality of Political Economy. Contemporary Review. The Contemporary Review Company, January 1881, pp. 333–360.
8. Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. Routledge, 1976.
9. Entrepreneurial Ambition – Innovation Provincial Rankings – How Canada Performs. Available at: www.conferenceboard.ca/.
10. Deakins D., Freel M.S. Entrepreneurial activity, the economy and the importance of small firms. Entrepreneurship and small firms. McGraw-Hill Education, 2009. ISBN 978-0-07-712162-4/.
11. Paul D. Reynolds (30 September 2007). Entrepreneurship in the United States: The Future Is Now. Springer. ISBN978-0-387-45671-3.
12. Ayotte K. Bankruptcy and entrepreneurship: The value of a fresh start. The Journal of Law, Economics & Organization, 2006, no. 23 (1), pp. 161–185.
13. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 2-bo'lism [Civil Code of the Republic of Uzbekistan, Part 2]. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari miliy bazasi – National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan. Available at: <http://www.lex.uz/>.
14. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On guarantees of freedom of entrepreneurial activity"]. 02.05.2012, no. ORQ – 328. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/-31846/>.
15. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, 40-modda [Civil Code of the Republic of Uzbekistan, Article 40]. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari miliy bazasi– National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan. Available at: <http://www.lex.uz/>.
16. Armour J., Kraakman R.H., Hansmann H., John M. Olin Center for Law, Economics, and Business. The essential elements of corporate law: What is corporate law? Cambridge, MA, Harvard Law School, 2009, p. 7.
17. Glover A., Short J. Bankruptcy, incorporation, and the nature of entrepreneurial risk. In Meeting Papers of Society for Economic Dynamics, Minneapolis, 2010.
18. Tadbirkorlik (Biznes) Huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi [Business Law. Textbook. Team of authors]. 2018, p. 40.
19. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights"]. Available at: <https://www.lex.uz/docs/-2382409#-2383410/>.
20. O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On Limited Liability and Additional Liability Companies"]. 06.12.2001, no. 310-II. Available at: <https://lex.uz/docs/-22525/>.
21. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 63-modda [Civil Code of the Republic of Uzbekistan, Article 63]. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari miliy bazasi– National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan. Available at: <http://www.lex.uz/>.
22. Patel N. 90% Of Startups Fail: Here's What You Need To Know About The 10%. 2015. Available at: <https://www.forbes.com/sites/neilpatel/2015/01/16/90-of-startups-will-fail-heres-what-you-need-to-know-about-the-10/?sh=4b01fb1f6679/>.
23. Ellis J. Never Giving Up: 9 Successful Entrepreneurs Who Failed at Least Once. 2016. Available at: <https://www.business.com/articles/never-giving-up-9-entrepreneurs-and-millionaires-who-failed-at-least-once/>.

24. Mac R. Five Startup Lessons From GoPro Founder And Billionaire Nick Woodman, 2013. Available at: <https://www.forbes.com/sites/ryanmac/2013/03/13/five-startup-lessons-from-gopro-founder-and-billionaire-nick-woodman/?sh=79197fe546e3/>.
25. What is the origin of bankruptcy? Where did bankruptcy come from? (n.d.). Available at: <http://www.chapter7-11.com/origin%20of%20bankruptcy.html/>.
26. This institutional innovation concerning firm exit had an equivalent on the entry side with the introduction of the limited liability principle which is at the core of the modern corporation. Guinnane, Harris, Lamoreaux, & Rosenthal, 2007; Mueller, 2003.
27. Hautcoeur P.-C., Di Martino P. The functioning of bankruptcy law and practices in european perspective (ca.1880-1913). Enterprise and Society, 2013. DOI: <https://doi.org/10.1093/es/kht037/>.
28. Athreya K. Shame as it ever was: stigma and personal bankruptcy. Federal Reserve Bank of Richmond Economic Quarterly, 2004. 90(2), 1–19.
29. Claessens S., Klapper L.F. Bankruptcy around the world: explanations of its relative use. American Law and Economics Review, 2005. DOI: <https://doi.org/10.1093/aler/ahi004/>.
30. Coelho P.R.P., McClure J.E. Learning from Failure. American Journal of Business, 2005, no. 20 (1), pp. 1–2.
31. Caballero R.J. Creative Destruction. In: S.N. Durlauf, & L.E. Blume (Eds.), Economic Growth, The New Palgrave Economics Collection, London, Palgrave Macmillan, 2010, pp. 24-29.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

I QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.